Artur Evans o'zining butun umrini Egey madaniyatiga bag'ishlagan edi. Ochilishini birinchi kunlarda Artur Evans «bu madaniyatda na grek, na rimliklarniki bor», deb yozgandi. Artur Evans 1941 yilda olamdan o'tgach qazuv ishlari to'xtab qoladi. Afsonaga ko'ra Krit orolida Minos ismli podsho hukmronlik qilgan. Greklar Krit orolini turli afsonalar bilan mashhur qilganlar. Eramizdan avvalgi ikki minginchiligi yillarda qadimgi madaniyat gullab-yashnab rivoj topdi. Egeylıklar va xattiklar bir qabilaga qarashli edi. Giomerning aytishicha, mashhur va afsonaviy Troya shahri eng qadimgi madaniyat markazi bo'lgan. Arxeologik qazuv ishlari natijasi qal'a devorlari, bastionlar, arxitektura komplekslari topilgan. Uning devori ichidan xazina topilgan, bu xazina Priamniki, deb faraz qilinadi.

Eramizdan avvalgi 3—2 ming yillikda Krit orolidagi Knoss, Fest, Gurniya shaharlari gullab, yashnab, dengizdagi hukmronligi kuchayadi. oqibatda davlat hamda hukmdorlar boyib ketishadi. Din orolda katta rol o'ynaydi.



Arxitektura

Eramizdan avvalgi II ming yillikda shahlar rivojlanadi, hayot yuqori taraqqiyotga ega bo'ldi. Bormerning yozishicha Krit orolida yuztacha shahar bo'lgan, qurilmalarning turlari har xil bo'lgani uchun orolda sinfiy ajralish paydo bo'lgan. Krit orolining turarjoylarida qal'a devorlari yo'q, bo'Imagan. Hamma arxitektura qurilmalari assimetriyalı bo'lgan. Bunga bugungi Gumiya shahrining yashash joylarining rejalarini misol bo'la oladi. Gurniya kichik shahar bo'lib, unda hunarmandlar yashagan. U joylar teplikdan pastiga qarab qurilgan.

Kritning asosiy shaharlari Knoss, Fest, Malida naqshlangan uylar bo'lgan. Bu uylardan quroq-aslaha va boyliklar topilgan. Badavlatlarning uylari juda ko'p chiroqlar bilan yoritilgan. Hovli tosh ustunlar bilan o'rалган. Bunga Knoss saroyi yorqin misol bo'la oladi. Saroy plani asissmetriyalı bo'lib, uning hovlisi juda katta. Hovli atrosida har xil balandlik va hajmida xonalar qurilgan. Ularning past-balандligi har xil bo'lib, ular o'zaro zina bilan qo'shilgan. Saroy maxsus havo almashish jihози bilan ta'minlangan. Shunday saroy kompleksiga ko'pdan-ko'p ustaxonalar hamda omborlar kengan. Artur Evans qidiruv ishlari olib borayotganida, omborlar ichida odam bo'yidек keladigan ko'zalar — pivos topildi. Bu idishlarda zaytun yog'i, asal va vinolar saqlangan. Ko'pdan-ko'p xonalar o'zaro bir-biri bilan bog'lanib ketgan. Qadimgi vinolar saroyida minotavr nomli maxluq yashaydi, deb hisoblashgan.



Tasviriy san'at

Krit orolining rangtasviri bizning zamonamizga, asosan, freska turida yetib kelgan. Ular saroy devorlarini hamda uylarni bezagan. Lekin Misr hamda Misopotamiya san'atiga nisbatan Krit san'ati umuman bosha dunyodir, ular bir-biriga mutlaqo o'xshamaydi. Freskalar tasvirida shodlik, beg'uborlik, g'amlik asosiy mavzudir. Misol

uchun devor naqshida surailami Artur Evans •Parijlik qiz•.
•Buqa bilan olishuv• deb nomlagan. Freskada buqa qiyofasi
bahaybat, kuchli tasvirlangan edi. Knoss saroyining devoriga
•Ko'k kiyimdag'i ayollar• kompozitsiyasi ishlangan bo'lib,
unda ayollar shodiyona qarab turishiibdi, yuzlari pardozi-
langan, qo'llari nozikdir. Sochlari marvaridlar bilan bezalgan.
Bu davrda Krit madaniyati eng yuqori pog'onaga chiqqan
edi.

Kritlilar dengizni yaxshi ko'rishar edi. Ular usta dengiz-
chilar edi. Shuning uchun ham rangtasvirida dengiz hayvon-
lari hamda suv osti o'simliklari uchrab turadi. Delliinlari surati
Krit sopoliga ham chizilgan. Krit rassomlari kandakorlik
sohasida ham zo'r usta bo'lganlar.

Krit podsholigi eramizdan avvalgi XV asngacha bo'lgan.
Yer qimirlash Kritda tez-tez bo'lgan. Shuning uchun olim-
larning taxmini bo'yicha vulqon uyg'onib, yerni larzag'a kel-
tirishi natijasida orol halokaiga uchragan. Shundan so'ng Krit
madaniyati o'zining tiklab olmagan. Sanoat rivojlanmay
qolgan. Saroy qunilishlari to'xtagan.



Miken

Eramizdan avval XIV va XIII asrlarda
Miken san'ati eng yuqori pog'onaga
ko'tarilgan edi.



Gennix Shlimen Miken madaniyatini
ochib bergen odamdir. Miken san'ati Krit
san'atidan farq qiladi. Ulaming naqshlari bir xil, sxematik.
Ayrim sahnalarda dinamika yo'q. Miken san'atida yengillik va
go'zallik ko'zga tashlanmaydi.



Arxitektura

Eramizdan avvalgi XVI asrda Miken
Egey yerlariga hukmronlik qila boshlaydi.



Akropol Miken davrida qurilgan yodgorlik.
Akropol kompleksiga saroy, mudosaa
devorlari, omborlar va dafn qurilmalari kirar edi. Akropol
devorlari noto'g'ri formali katta toshlardan terilgan (siklonik
terilish).

Sherli darvoza, bu mikenliklarning urushqoqligidan dalolatdir. Darvozaning kengligi 3,5 m dan iborai. Darvozaning tepasida toshli relefda ikki sher tasvirlangan. Sherlar kolonnasi saroyning ramzidir. Akropolning eng baland qismida saroy joylashgan.

XIII asrda davlat bir necha qismlarga bo'linib ketadi. Ilgari Akropol katta emas edi, keyinroq unga qo'shib «pastki shahar» qurilgan. Tirinf megaron Mikendan ancha katta va kengdir. Saroy qurilmalaridan tashqari, kult qurilmalari ham bor.



Tirinf va Miken saroylarining devorlarini freskalar bilan bezatilgan. Frizalar naqshlangan edi. Gomer Mikenni oltinli deb atagan. Haqiqatdan ham Miken dafn maqbaralarida juda ko'p tilla va kumushdan yasalgan buyumlar topilgan. Ular juda nozik qilib yasalgan. Kubok, vaza va tovoqlar oltindan yasalgan. bronzadan yasalgan qilichlarning dastasi fil suyagidan ishlangan.

Troyan urushi davrida (eramizdan avvalgi XIII asr) quldor davlatlar iqtisodiyoti zaiflashadi. Shu sababdan ularni doriyliklar — grek qabilasi tomonidan bosib olinadi. Shu bilan yangi madaniyaiga yo'l ochiladi. Egey davlatlarining madaniyatni Gretsya va Rim san'atining rivojlanishida katta rol o'yнaydi.

Tayanch so'zlar:

Gomer — qadimgi grek dostonchisi, «Illiada», «Odisseya» poemasining muallifi, eramizdan avvalgi VI asrda yashagan.

Minotavr — afgonaviy hayvon, yarim odam, yarimi buqa ko'rinishida bo'lgan.

Riton — urf-odat uchun mugizdan yasalgan idish.

Diadema — boshga kiyiladigan zebi-zlynat.

Megaron — to'niburchak xona, o'nasida o'choq qurilgan.

O't-o'sini tekshirish uchun savollar:

1. Egey madaniyatini kim ochgan?
2. Krit san'atining negizida nima bor?
3. Krit arxitekturasining o'ziga xosligi nimadan ko'rindi?
4. Miken va Krit arxitekturasi va tasviriylar san'ati o'rtaсидаги farq qanday?

QADIMGI GRETSIYA SAN'ATI

Qadimgi Gretsiya san'ati madaniyatining rivojlanishi insoniyat tarixida katta ahamiyatiga ega. Madaniyat Bolqon yarimorolida, Egey dengizi omollarida, Kichik Osiyoda, Qora dengizining sohillarida, Gretsiyada (Italiya va Sitsiliyada) rivojlangan.

Subtropik iqlim dehqonchilik va chorvachilikka qulay sharoitlar yaratadi. Gretsiya boshqa davlatlar bilan savdosoliq qilgan. Ular dengizchi bo'llishgan. Shu bilan birga san va san'at ham rivojlangan. Gretsiya jamiyatni hukumat va din arboblari tomonidan qisilmagan edi. Shu sababli realistik san'ati paydo bo'ldi. •Odam — hamma narsaning o'lchovidir• — grek faylasufi Protagor shunday degan edi.

Shuning uchun ham qadimgi Gretsiyada taqdир va tabiat kuchining obrazini katta hayvon yoki maxluq sifatida tasvirlamagan edi. Xudolarni odam yuzli, odamga nisbatan qudratliroq qilib tasvirlaganlar.

Qadimgi Gretsiyaning butun san'ati doston va afsonalarga asoslanib yaratilgan. Qadimgi Gretsiya san'ati bosqichlаб asta-sekin rivojlangan. Eng qadimgi davr — Gomer va erta arxaik davridir.



Gomer davri



Eramizdan avvalgi XI—VIII asrlar Gretsiya tarixi deyani noma'lum. Bu davmi faqat Gomerning so'zlaridan bilamiz. U •Illiada• va •Odisseya• eposlarini yozgan.

Gomer davrida jamiyatning asosiy qismini mustaqil qishloq xo'jaligi bilan band bo'lgan dehqonlar tashkil qilgan. Ular birlashib qabilani tashkil etib, dohiylar rahbarlik qilgan.

Dohiy — basilevs. Basilevs — harbiy boshliq, qozi, kohinlardan iboratidir. Ulaming qo'lida juda katta boylik bo'lgan.



Arхitektura



Arxeologiya qazilmalariga qaraganda, uylar pahsa yoki toshilardan terilib, ustti tekis qilib qoplangan. Uy asosiy xona — megaron ponikdan iborat. Megaron ichida o'choq qurilib, uning ustida, tomida tutun chiqadigan teshik qoldirilgan.

Ehromlar shahar maydoniga, ansambliga yoki mustahkamlangan qasr Akropolga qo'shilgan.


Eng qadimgi ehromlar eramizdan avvalgi IX—VIII asrlarga oiddir. Drerosdag'i ehrom megarondan iborat ikki ustunli bo'lib, xonaning ichida qurbonlik uchun o'choq qurilgan, xuddi shunaqa qurilma yashash xonada ham bor edi. Maxsus joyda bronzadan yasalgan haykalchalar turgan. Devorlar toshdan terilgan. Spartadagi Artemida Orseya chromi (eramizdan avvalgi IX asrda) plani legarondan farq qiladi. Ehrom uzunchoq qurilishdan iborai bo'lib, ikki nesqa bo'lingan. Mehrob esa tashqariga qurilgan. Ehroni ustunlari yog'ochdan yasalgan.




Tasvirliy san'at



Gomer davrida monumental haykal-taroshlik rivoj topmagan, lekin toshdan tarashlangan yoki yog'ochdan yasalgan sanamlar — ksoan uchrab turardi. Shu davrdan bizlarga qat'iy geometriyalii, ornamentli sopollar yetib kelgan. Avval oddiy, yumaloq tepasida chiziqlar bo'lgan, so'ng har xil odamlar, hayvonlar tasvirlangan. Stil—meandr ornament paydo bo'ladifi. Misol uchun, Dipilonidagi go'r ustiga qo'yilgan — kraler — (ko'za) (Nyu-York, Metropoliten muzeyi). Unda dafn marosimi tasvirlangan bo'lib, odamlarni va hayvonlarni geometriya shaklidagi figuralari ko'zani atrofiga tasvirlangan. Ularda sharq dashi xalqlari ustalarining hamda Krit ustalarining stili ko'rinish turardi.


**Arxaik Gretsilya
(eramizdan avvalgi
VII-VI asrlar)**

Gretsiya tarixida eramizdan avvalgi VIII-VI asrlar arxaik davri bo'lib hisoblanadi. Bu davrda antik jamiyat rivojlanan boshladi.


Sinsiy kurashlarning keskinlushmani

Kalta yer egalari va demoslar o'rta-sida keskin kurashlar bosilganib ketadi.

Sinsiy kurashlarning keskinlushmani natijasida vaqtincha hokimiyat tiranlar qo'liga o'tadi.

Tiranlar o'zlariga tayanch qilib hunarmandlarga va sav-dogarlarga homiylik qilganlar. Aynan shu davrda antik madaniyatning asosiy turlari tug'ila boshlaydi. Fan, adabiyot teatr va sport rivojlanadi va bular san'at asarlarida aks ettiladi. Grek madaniyati egey, doriy va sharq madaniyatlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan degan farazlar bor.

Egey san'ati hayotiy kuchini kichik Osiyoda asrab qolgan edi. Doriy san'ati qa'tiy badiiy stilni olib kingan.


Arxitektura

Arxaik davrning arxitektura qurilmalari bizning zamonimizga, afsuski, bu-zilib vayrona bo'lib yetib kelgan. Grek arxitekturasida birinchi o'rinda chrom qurilmalari turgan. Lekin, chromlarga xaloyiq cho'qinish uchun yig'ilmasdi. Diniy tadbirlarni o'tqazish uchun ular ochiq osmon tagida yig'ilishgan. Greklar chromlarda xudolaming haykallari qo'yilgan. Grek ehromi Miken megaronidan paydo bo'lgan edi. Xudo haykali shamxonaga qo'yilgan. Quyosh yorug'i faqat darchalardan kinshi tufayli u xonalar hamisha yarim qorong'u holatda bo'lgan. Bu qandaydir alohida tantana bergen. Arxitektor Libon Iomonidan Zevs chromi qurilgan. U o'zining shakli va proporsiyasi bo'yicha oliy darajada bo'lgan. Zevs chromi ustunlarining balandligi 10,4 metrdan iborat. Zevs haykalini grek haykaltaroshi Fidiy ishlagandi. Haykal katta bo'lgani uchun taxtda o'tirgan holatda bo'lsa ham boshi shipgategay-tegay deb turgan.

Zebs chromi bizni zamonimizgacha buzilgan, vayrona bo'lgan holda yetib kelgan.

Pesumdagi Poseydon chromi bizning zamonamizga durnistroq holda yetib kelgan. U doriy chromi hisoblangan. Hamma kult qurilmalari kabi Poseydon chromi to'g'ni burchakli. Ehrom ichida ikki qatorli galerya bor.



Haykaltaroshlik




Ulug' haykaltarosh Miron eramizdan avvalgi V asming o'talarida Alinada yashagan va ishlagan. Uning yaratgan haykallari tasviriy san'atning rivojlanishiiga juda katta ta'sir ko'rsatgan. Uning bronzadan yasagan •Diskobol• haykalining marmardan yasalgan kopiyasi bizning zamonamizgacha yetib kelgan.

•Diskobol• (disk ouvchi). Og'ir diskni uzoqqa otishga tayyor turgan sportchining muskullari tarang tortilgan, gavdasi yoysimon egilgan. Iekin yuzida xotirjamlik aks etgan.

Yana bir ulug' haykaltaroshlardan biri Poliklet o'z san'atida odam qiyofasini turli holatlarda ifodalagan. •Dorifor• — nayza ko'taruvechi yosh yigit. Bu haykal bronzali asil nusxasidan olinib, bizning zamonamizga toshdan yasalgan kopiyasi yetib kelgan. Bu obrazda jismoniy va ichki dunyosi bir-biriga moslanadi. Poliklet o'zining butun ijodiy umrini odam tasanini ideal proporsiyasini aniqlashga bag'ishlagan.

Poliklet juda ham kam haykallar yaratdi. Odam gavdasing ideal proporsiyalar o'lehovini izohlab bergan.



Rangtasvir



Klassik davrda rangtasvir keng qo'llila boshlandi. Yevroniy, Yesliimid, Doris va boshqalar taniqli ustalar edi. Yefroniy, tovoq idishlarga surat chizish bo'yicha shuhrat qozongan ustalardan biridir. U go'zal asarlar yaratdi. Bunga •Qaldirg'ochli tovoq• nomli asari misol bo'la oladi. Tovoq sirtiga yosh yigit, erkak va bolaning bahorni kutib olishi tasvirlangan.



Yugori klassika. (Eramizdan avvalgi V esning ikkinchi yarmi)



Grek san'ati Periki hokimlik qilgan vaqtida gullab yashnab ketdi. Afina Gretsianing siyosiy va madaniy markazi bo'lib qoldi. Dengiz va quruqlikda Eronning usiidan qilingan g'alabadan so'ng

Gretsiyaga katta boyliklar oqib kela boshladi. Shu kelayotgan boyliklardan Perikl foydalaniib, Akropoldagi arxitektura ansambil qurilishini boshlab yubordi.

Afinadagi Akropol forslar tomonidan eramizdan avvalgi 480—479 yillarda buzib tashlangan edi. Perikl davrida ansambl yodgorliklari qayta tiklandi. Parfenon — Afinaning bosh chromi bo'lgan. Ehrom tosh qoyalaringin yuqori nuqtasiga joylashgan. Ehrom perinter turida qurilgan. Bu ajoyib taniqli qurilma dunyoning yetti mo'jizasidan biri hisoblanadi. Uning arxitektorlari Iktin va Kallikrat edi. Bu yerda xazina ham joylashgan. Parfenon ustunlarining balandligi 10,4 metr, ulami proporsiyasi nozikroq bo'lib, salgina ichkariga yonboshlatilgan. Parfenon haykallarini Fidiy va uning rahbarligi ostida Gretsiyaning eng yaxshi ustalari yaratgan edilar. San'at asarlarida Afina bilan Poseydon o'rtaсидаги Attikni o'ziga qo'shib olishi uchun bo'lgan jang ifodalangan. Shuningdek. qahramonlik dostonlaridan kentavr bilan kurashish, Troyani bosib olishlar ifodalangan. Panafince frizining uzunligi 160 metrdan iborat bo'lib, uni ichida yuztaga yaqin xudolar haykali, odamlar, otlar, qurbanlik uchun atalgan hayvonlar tasvirlangan.

Akropol to'liq oq teliy marmaridan qurilgan. Propileyi ancha boy, orderlar tartibida. Kirish darvozalar yonida Pinakoteka (badiiy usarlar yig'ilishi) va Niki—Apteros (qanoitsiz g'alaba) joylashgan edi. Bu qurilmaning muallifi Kolmekratdir. Bu chromni G'alabalar xudosiga atab qurilgan. Bino amfiprostil turida, ioniy orderlar usulida qurilgan. Ehrom qo'yilgan maydon marmarli parapet bilan o'ralgan bo'lib, unda relesli chiroyli haykallar bilan bezarilgan. Ehrom oldida Miki mehrobi qurilgan. Akropol markazida Afina Promaxos haykali qo'yilgan edi. U bronzadan Fidik tomonidan yasalgandi. Parfenonning chap tomonida Erexteyon ehromi qurilgan. Bu ehrom Afina va Poseydonga atab Fidiy Afinadan ketgandan keyin qurdirgan edi.

Turkiya — Venetsiya urushi davomida Parfenonda porox ombori joylashgan edi. unga snaryad tushib, ko'p qismi pontlab ketadi.



Fidiy Afinada taxminan eramizdan
Haykaltaroshlik avvalgi 500 yillarda tug'ilgan va 430 yillarda olamidan o'tgan. U eng iste'dodli ulug' arxitektor, haykaltarosh va rassom bo'lgan. Akropolni yaratish uning ulug'vor ishidir. U rangtasvirda ham ulug'langan edi. U monumental haykallar, yaratgan kichik haykalchalarning plastik shakllarini yaratishda ham ustalik qilgin. Fidiy ulug' faylasuf bo'lgan. U odamning ichki dunyosini yaratgan obrazlarda ko'rsatib beru olgan. U yaratgan 14 metrlik Zevs haykali ayniqsa mashhur bo'lgan. U haykalni Olimpiyadagi Zevs ehromi uchun yaratgan edi. Haykal boshqa yodgorliklar bilan birga vayrona bo'lgan. Akropoldagi Afina haykalini ham Fidiy yaratgan edi. U xuddi Zevs haykaliday otin hamda fil suyaklaridan yasalgan edi. Tilladan yasalgan gavda niqobi va kiyimlarga yong'lik tushiganda yarqirab ketardi.

U qo'lini uzatib turgan, uni kaftidagi xudo ayol Niki (G'alaba)ning yuzi xotirjam, qarashi esa tiniq. Uning obrazi g'alabadan xursandchilik tuyg'ularini ko'rsatib turgan.



Tovoqqa rasm chizish va rangtasvir

Yuqori klassik davrda tovoqqa rasm chizish monumental rangtasvir bilan bir qatorda rivojlangan. Ularda ko'proq dostonlardagi niavzular tasvirlangan. Monumental rangtasvir bizning zamonimizgacha deyarli yetib kelmagan. Qadimda ko'proq frezki texnikasi qo'llanilgan. Yana mo'm va siroch bo'yoglari ishlatalgan (enkaustika). Rassomlarni ismlari saqlanib bizning kunlarimizga yetib kelgan. Ulardan biri Polegnotdir. U o'z asarlariда tarixiy va doston mavzularini tasvirlagan. Rassom to'rt xil rang bo'yogni ko'p ishlatalgan. Bular oq, sariq, qizil va qora.




Arxitektura

Arxitektura bir tekisda rivojlanmadи. Iqtisod pasayib va milliy krizislар sababli qurilishlar deyarli to'xtatildi. Afinada bu juda ham sezildi, chunki Pelopones unushida ular mag'lubiyatga uchraganlar.

Eramizdan avvalgi IV asrda ehromlar bilan bir qatorda icatr binolarini qurish ham rivojlandi.

Spektakllar ochiq osmon tagida ko'rsatilgan. Tepalik atroflaridagi daraxtlarni kesilib, u yerlar tomoshabinlar o'tirishiga moslashtirilgan. Epidavr teatrida 52 qator o'tirgichlar bor edi. Orkestra — maydon artistlar uchun joy (sahna desa bo'ladi). U dumaloq yoki yarim dumaloq bo'lgan. Teatr akustikasi o'ziga mos edi.

Ayrim shaxslarga oid, ularni ko'kka ko'iarish uchun qurilmalar paydo bo'la boshladi. Lizikrat haykali bunga misol bo'ladi. U silindr shaklida bo'lib, pilyastrli amaliylashdirilgandir. Haykal kubsimon konusli sokolga o'matilgan. Bu haykal hajmi katta emas, lekin korinf ordeni turida yasalgani uchun, u juda nozik va go'zaldir.



Haykaltaroshlik



Haykaltaroshlikda realizm tendensiylari namoyon bo'ldi. Davrning qaramaqshiliklari eng katta ustalardan biri — Skopas ijodida tasvirlanadi. Uning asrlari katta dramatizmi bilan farq qiladi. Skopas qahramonlari — kuchli odamlar, klassik qahramonlardir.

O'sha davrning ko'pchilik ustalari bronza bilan ijodini bog'lagan bo'lsa, Skopas esa marmar bilan ishlashni afzal ko'rgan.

Marmar nur va soyaning nozik o'yinlarini yaxshi ko'rsatigan. Skopasnинг taniqli asarlaridan biri «Menada». U bizlarga buzilgan holda, antik kopiya holida etib kelgan. Bu asarda odamni kuchlanishi obrazzi Mernada boshi orqaga tashlangan, sochlari og'ir to'lqinday yelkasiga tushgan.

Galikarnas maqbarasi frizlari saqlanib, bizlarga yetib kelgan. Unda greklar bilan amazonkalar o'rtaсидаги jang tasvirlangan (London, Britaniya muzeyi).

Skopas ijodi grek plastikasiga katta ta'sir qildi. Uning ijodini faqat zamondoshi Praksitel bilan tenglashtirsa bo'ladi.

Praksitel yaratgan obrazlar tiniq va ravshandir. Uning «Germes bilan Dionis» asari bizgacha yetib kelgan (Oliiniyi. Arxeologiya muzeyi). Ma'lum bo'lishicha Praksitel ham Skopasga o'xshab marmar bilan ishlashni yaxshi ko'rgan.

Praksitel ayol go'zalligini, yangi idealini yaratdi. Bunga Afrodita obrazı misol bo'la oladi. O'sha zamonda Afrodita haykali qimmat baholangan. Afrodita Knidskayani ko'p ustalar kopiyasini yasamoqchi bo'lishdi, lekin birontalari ham asl nusxasiga teng kelolmadi. Bu haykal bizlarni zamонимизга rimliklaming kopiyasida yetib kelgan. Ularning eng yaxshilari Vatikan va Myunxen muzeylarida saqlanadi. Praksitel yasagan ba'zi haykallari rangtasvirchi Nikiye tomonidan bo'yab qo'yilgan.

Haykaltarosh Leoxar Aleksandr Makedonskiyning saroyida faoliyat ko'rsatgan.

Uning asarlaridan biri — Apollon Belvederskiy haykali shuhru qozongan (Rim. Vatikan).

Lisipp realistik yo'nalişdagi haykaltaroshlardan biri. Balandligi 20 metrdan iborat Zevs haykalini bronzadan yasagan. Afsuski bizlarning kunimizgacha yetib kelmagan. U yana Gerakl haykalchasini yaratgan edi. U bu haykalchani Aleksandr Makedonskiy uchun yasab bergen edi. Lisipp «Ap opsiomen» asarida yigitning kurashdan so'ng badaniga yopishgan quinni tozalashi tasvirlangan (Rim. Vatikan). Atilining klichishgan gavdasi murakkab buzilishida ko'rsatilgan. Yuzida charchaganlik, ko'zlan uzoqqa boqib turibdi.

Lisipp portret haykallar yaratishda o'z mahoratini ko'rsatgan. U Aleksandr Makedonskiy portretini yaratgan, unda qahramonning ichki dunyosini ko'rsatib bera olgan.




Tovoqqa ream chizish va rangtasvir

Klassik davrning oxirida tavoqqa rasm chizish xarakteri o'zgaradi. Endi ko'proq ornamentli naqshlar uchrab turadi. Qahramonlik syujetlarining o'rniiga janrlı tasvirlar paydo bo'la boshladi.

1940 yili notanish grek ustasining nodir devoriy naqshlari va (Makedoniya) go'zal ishlangan mazaika topilgan.



Badly hunarlar



Kech klassik davrda badiiy hunarlar rivojlangan. Tavoqlarni shakllari murakkablashgan. Mejliddan yasalgan bulyumlar paydo bo'ldi.

Tayanch soʻzlar:

<i>Axrik</i>	— qadimgi.
<i>Meandr</i>	— qadimgi grek yoki qadimgi rimda jamiyat, tuzum.
<i>Krater</i>	— grek idishini turi, unda vino bilan suv aralash-tirigan.
<i>Demos</i>	— qadimgi Gretsya xalqi, aristokratiyaning qara-ma-qarshisi. Qullar demos qatoriga qo'shil-maydi.
<i>Tiran</i>	— qadimgi Gretsiyada — hokimiyatni kuch ishlabit, qo'iga olgan shaxs.
<i>Anti</i>	— chromni ikki yon devori
<i>Pronaos</i>	— qadimgi Gretsiyadagi chromlarning esliik oldi.
<i>Amfiprostil</i>	— ikki tamoni portikli chrom.
<i>Fast</i>	— ustun, kalonna o'zagi.
<i>Atlanlar</i>	— qadimgi grek dostonidan. Zevsni buyrug'i bilan qo'llari va bushi bilan osmonni ushlab turgan.
<i>Kariatidalar</i>	— axitektura qurilmasida to'sinni ushlab turadigan haykal. U kalonnaga tiralib ushlab turish funk-siyasini bajaradi.
<i>Metoplar</i>	— qadimgi Gretsiyani axitektor qurilmasida trig-liflar orasidagi masofa doriy order frizasida.
<i>Fronton</i>	— axitektura qurilmasida uchburchakli maydon, binoning tomini ikki tomonga og'ishi.
<i>Xiron</i>	— Qadimgi greklarning ichki siyimi, ko'yylakka o'xshagan, belbog' bilan bog'lanadi.
<i>Peplos</i>	— plash.
<i>Kentavr</i>	— qadimgi greklar dostonidan, yarim odam, yarim ot.
<i>Teze y</i>	— qadimgi grek dosionida minotavrni o'ldirgan — qahramon
<i>Gerakti</i>	— Qadimgi grek dostoni qahrimoni, katta kuchga ega bo'lgan.
<i>Nef</i>	— axitekturada kalonnalar bilan bo'lingan chromni bo'yining bir qismi qadimgi grek dostonida — dengiz xudosisi Neptun.
<i>Panafiney</i>	— qadimgi Gretsiyada ritual bayrami, to'n yilda bir marta bo'ladi.
<i>Parapet</i>	— panjara.
<i>Pilyastralar</i>	— axitektura qurilmasida devordan chiqib turgan to'nburchakli ustun.
<i>Germes</i>	— qadimgi grek dostonida saydo xudosisi, yo'llar homiysi. Uning haykali chorraxalarga qo'yilgan.

O'z-o'sini tekshirish uchun savollar:

1. Grek san'ati qaysi davrlarga bo'lindi?
2. Eramizdan avvalgi XI—VIII asrlar nima uchun «Gomer davri» deyiladi?
3. Arxaik, klassik davrlarda arxitektura qanday rivojlangan?
4. Qadimgi Gretsyaning mashhur haykaltaroshlari nomini aytib bering.
5. Qadimgi Gretsiyani ranglasviri qanday rivojlangan?

QADIMGI RIM SAN'ATI

Qadimgi Rim san'atining boshlanishi Respublika davri eramizdan avvalgi V—I asrlarga to'g'ri keladi.

Rim badiiy madaniyati har xil shakllarda bo'lgan. Rim san'atiga bosib olingan davlatlar xalqlarining san'ati ham qo'shilgan. Bunda birinchi navbatda etruslar katta rol o'yndilar. Ular rimliklarni shahar qurilish ishlari san'ati bilan tanishtirdilar. Injenerlik qurilmalar, chromlar va turarjoylar devoriy monumental rangtasvir, haykaltaroshlik va shular jumlasidan edi. Rim madaniyatiga grek kolonislari ham katta ta'sir qildilar. Rimliklur grek arsitekturasining order sistemasini va dekor usullarini takrorlaganlar. Rim san'atiga ellinizm davri katta ta'sir qilgan. Rimliklar akveduklar, ko'priklar, yo'llar, qal'alar buniyod etganlar. Poytaxt savdo markazi bo'lgan Arxitektura ansambliga ehromlar, savdo rastalari, bozorlar kirjan. Markaziy maydon taniqli shahar fuqarolarining haykallari bilan bezatilgan.


Rim Respublikasi


Eramizdan avvalgi VI va I asrlarning oxiri, Rim tarixi kichkina qabilalardan boshlangan. Eramizdan avvalgi II asming o'tasida Rim qudratli davlatga aylanadi. Boyliklar yengilgan kichik davlatlardan oqib kelib Rim boyib ketadi. Lekin Rim respublikasida qishloq aholisining yerlar uchun olib borgan urushlari, fuqaro urushlari, qullarning qo'zg'olontari (Sitsiliyadagi qullar qo'zg'oloni, Spartak rahbarligidagi qo'zg'olon) bularning bari davlatni kuchsizlantiradi.



Arxitektura

Respublika davrida Rim atrofidagi mudofaa devorlari qurilgan. Uni qurish eramizdan avvalgi VIII asrda uch tepalikdan boshlangan; Kapitoliy, Palantin va Kvirinal toshdan terilgan edi. Rim yo'llari katta ahaniyatiga ega bo'lib, respublika shaharlarini bir-biri bilan bog'lagan. Rimga keladigan Appiyev yo'li birinchi darajali bo'lib, undan xabarchilar qatnagan, so'ng butun Italiya shaharlari bir-biri bilan yo'l tarmoqlari bilan bog'langan. So'nggi asrlarda Rim shahri suv bilan ham o'zini ta'minlab, shu sohada boy shaharlardan biri bo'lib qoladi. Katta, baquvvat ko'priklar va akveduklar o'n kilometrdan ham uzunroq bo'lgan. Gretsiya ustidan hukmronlik naijasida Rimga ko'p miqdorda taniqli grek haykallari va grek rassomlarining taniqli asarlari olib kelinadi. Rim chromlari va saroylari muzeylarga aylanib ketadi.

Rimliklar, avvalo greklarning order sistemasiga e'tibor berishadi. Gretsiyada order konstruktiv rolni o'yanagan bo'lsa, Rimda esa, asosan, dekorativ sifatida ishlatalgan. Tirkach rolini Rim qurishlarida oddiy devor bajargan. Shuning uchun qurilishlarda ko'pincha arka ishlatalib, u katta baquvvat ustular ustiga o'matilgan. Toskan ordeni ularga etrusklardan meroz bo'lib qolgan.

Eramizdan avvalgi V—II asrlarda chromlar umumxalq binolariga aylanadi. Yumaloq va to'rtburchak psevdoperipterlar qurilgan. Eramizdan avvalgi I asrda Rimda Fartuna Virilis chromi qurilgan.

Rimliklarning dang'illama uylari, asosan, bir qavatlilbo'lib, unda oila hayoti hamda ishbilarmonlik bir-biri bilan bog'lanib ketganday. Uylarning tom yonboshlarida teshik bo'lib, u yerdan yomg'ir suvlarini marmardan qurilgan hovuzlarga yig'ilgan. Peristik uyning asosiy joyi edi. Uni o'tasida naqshlar bilan bezalgan hamda marmardan yasalgan haykal-lar va gultojlar o'rnatilgan.

Rim uylarida qabulxonalar paydo bo'ladi (+Vitteevlar uyi Pompey). Pompey naqshlari keyinchalik G'arbiy Yevropa davlatlarida dekorativ san'atning rivojlanishida katta rol o'yagan.



Rimliklar greklarga o'xshab monumental haykallar yaratganlar. Relef arxitektura dekorini uzilmas bo'lagi bo'lган.

Respublika davrida haykallar, asosan, etrus ustalari tomonidan bronza yoki terakattardan tayyorlanadi. Etrusslarning haykallaridan biri bronzadan ishlangan •Kapitololiyalı bo'ri urg'ochisi• Rim ramzi hisoblanadi. U realistik bo'lib, yuqori quyish texnikasida bajarilgan. Rimliklar portret haykallarni yaxshi ishtay olmaganlar. U eramizdan avvalgi I asrning boshlaridagina rivojlana boshlagan. Rim portretining kelib chiqishi eski zamondan dafn kulti bilan bog'liq bo'lib, ular uy o'chog'ini himoyachisidir. O'lgan oila a'zosini yuzidan niqob olib triumflarni bezaganlar. Aktyorlar ular dan maska olib dafn marosimida namoyish qilganlar.


Rim ustalari tosh, marmar va bronza bilan ishlashni yaxshi bilganlar. Portret haykalga •Brut• nomli asarni ko'rsatish mumkin (eramizdan avvalgi III ming yillikning oxiri va II ming yillikning boshi).

Rimliklar devoriy naqshlarni uylarni bezashda ishlatganlar. Bunga Pompey naqshlari misol bo'la oladi. Bu naqshlar to'rt uslubga bo'linadi.

Birinchi inkrustatsiyali uslubni (eramizdan avvalgi II asr) devori kvadrat marmar plita hamda yashma bilan bezatilgan. Pompey Flavii uyi misolida ko'rish mumkin. Devorlar siliq bo'lib, ular naqsh orqali illyuzorli ustunlar, pilyastrlar, karnizlar va portiklar bilan bo'lingan. Interer ustunlar orasiga turli kompozitsiyalar joylashtirilganligi sababli tantanali ko'rinishga ega bo'lgan. Bu kompozitsiyalar taniqli grek ustalarining asarlari edi (•Misteriy villasi• Pompeyga yaqin joyda joylashgan). Uy devorlariga perspektiv ravishda ko'chalar, maydonlar, uylar, chromlar, bog'lar qishloq yerlari va tog'lar rasmi solingan. (•Liviya uyi•, Rim).


Oriyentatsiyali uslub (aniqlash) imperiya davriga xos bo'lib, eramizdan avvalgi I asrda qo'llanilgan. Chiziqlik ornament devorning tekisligini ko'rsatgan. Ingichka kichik ustunlar, girlyandalar, gullar xonalarga shinamlik bengan.

Dekorativli uslub eramizdan avvalgi I asrning o'talarida tarqalgan. Devor rasmlari dekoratsiyani eslatgan. Saroylar, binolar, bog'lar, xuddi oynani ichidan ko'rinishini tasvirlanadi.



Rim imperiyasi

Eramizdan avvalgi I asrning oxirida Rim davlati aristokratik respublikadan imperiyaga aylandi. Bu davrda osoyishtalik davri bo'lib, sinfiy kurashlar tugagan. Avgust hukmronlik qilgan edi. Imperator hukmronlik qilgan davrda san'at gullab, yuqori pog'onaga ko'tarildi. Tarixchilar bu davrni Rim davlatining «oltin davr» deb ataganlar. Bu davrda arxitektor Vitruviy, tarixchi Sitaliliya, shoirlar Virgiliy, Ovidiy va Goratsiyalar ijod etadilar. San'atda klassizm bosh yo'naliish hisoblanib, keyinchalik bu G'arbiy Evropa davlatlariga katta ta'sir ko'rsatadi.



Arxitektura

Qadimgi Rim san'ati bizning eramizning birinchi va ikkinchi asrida yuqori pog'onaga ko'tarildi. Lekin shu davrda omma o'tasida qarama-qarshi keskinliklar boshlangan. Sharq territoriyalarini bosib olinishi tufayli Rim iqtisodini kuchayib ketishiga sabab bo'ldi. Poytaxtidan uzoqda joylashgan shaharlar ham gullab yashnadi. Rim esa dunyo imperiyasiga aylandi. Eramizning I asri oxiri va II asrining boshlarida Flaviy va Trayan hukmronlik qilganlar. Katta arxitektura komplekslari buniyod etildi. Uch qatorli murakkab arkalar qurilgan. Konstantin arkasi (eramizning 4 asrida). Rimliklar teatr binolari, amfiteatrlar qurganlar. Bu qurilmalar antik shahariarga xosdir. Kolizey sahnasi atrofiga tribunalalar qurilgan, ular osti foye uchun ishlataligan va zinalar qurilgan. Kolizey hozirgi kungacha o'zining burunligi va konstruksiya mustahkamligi bilan mashhurdir. Bizning eramizning I asridan binolarning yangi turi dunyoga keldi. Bahaybat termalar (hammom) buniyod etildi. Ular ikki yoki uch ming odamga mo'ljallangan. Sovuq yoki issiq suvli maxsus xona ichiga joylashtirilgan hovuzlardan tashqari, term kompleksiga gincos va kitobxonasi ham kiradi. Ichiga bog' va parklar kiradi. Eng taniqli termalar imperator

Karakal davrida qurilib, bizning zamonamizga vayrona holda yetib kelgan. Diakliusion terma kattaligi bilan Karakl temadan ustunlik qiladi.

 **Haykaltaroshlik** Imperiya davrida relief va plastika o'z rivojini topadi. Mars maydonida monumental marmarli tinchlik mehrobi quriladi (eramizdan avvalgi 13—9 yillar). U imperator Avgustning Ispaniya va Galliyadagi g'alabalariga bag'ishlangan. Yuqori mehrob reliefida Avgust, uning oilasi va rimli patrisiylaming mehrobga qarab tantanali yurishlari ifodalangan.

Bu kompozitsiya bir xil ritmli bo'lib, unda relief lentasida rimliklar armiyasining doklarga qarshi kurashib ularni ustidan g'alaba qilishi, qal'anisi ishg'ol qilishi, harbiy majlislar, g'alaba qozongan armiyaning namoyishlari tasvirlangan.

Rim haykaltaroshligida portret yaratish bo'yicha birinchi o'rinda turadi, uning yangi yo'naliishi grek san'ati ta'sirida bo'lib, unga «Avgustli klassitsizm» nomi berilgan. Avgust davrida obrazlar keskin o'zgardi. Unda ideal inson klassik go'zallikda tasvirlandi, bu yangi usul edi. Saroyda portretlar galereyası paydo bo'ldi. Primma Portdagı Avgustning marmardan yasalgan haykali (eramizning Lasr boshi), unda imperator pansir kiyagan, qo'lida jezli bilan ifodalangan. Imperatorni turishi oliy darajali, qaddi qomoti kelishgan bo'lib, tinch holatdadir. Uning bir oyoqqa tiralib turishi xuddi Poliklet kompozitsiyasini cisladi. Avgust davridagi portret usulublari Yuliy Klavdiy va Flaviy (69—96 yillarda biz er.) dinastiyalari hukmronlik qilgan davrlarda o'zgardi. Portretlar pompezli qilib tasvirlana boshladi. Imperator portretlari bilan birga o'rta tabaqcha namoyondalarining portretlari ham ishlana boshladi. Portretlar realistik qilib tasvirlanadi. Neron portretida (Rim milliy muzeyi), past joylashgan peshonasi, shishib ketgan qovog'i ostidan og'ir ishonmaslik bilan nazar tashlab, vahimali iljayishi uni xunuk va zolimligini ko'rsatib beradi. Ayol obrazi «Rimli ayol portreti»da ko'rsatilgan (Rim, Kapitoliy muzeyi). Unda qandaydir qisilgan holat seziladi. Obraz boshini salgina

burish bilan jontantirilgan. Yosh ayolning sochlari to'liq taralgan, boshidagi toji nozik yuz chiziqlari go'zal. Portretda individualizm «Siriyanca» (II asmi ikkinchi yarmi biz era.) portreti shuning jumlasidandir (ermitej, Sankt-Peterburg). Bu davrda yaratilgan Mark Avreliyining bronzadan quyilgan otliq haykali ham ajoyibdir. U ikkinchi marta 16 asrda Mikelandjelo loyihasiga asoslanib Rimdagi Kapitoliy maydoniga qaytadan o'matilgan. Imperator obrazı — gumanizm va grajdantlik idealini gavdalantiradi.

Shu davr portrettarining xarakteristikasi va badiiy usullari har xildir. •Bola portreti•da (III asming birinchi yarmi) qahramonning qayg'uli ko'zlari tasvirlangan. Marmarning tiniqligi bola yuzining kasalligini kuchuytiradi. Kechki davrlarda portret rivojlanishi, tashqi ko'rinishi qo'pollashadi. Imperator Filipp Aravityanin yuzi assimetriyalı, nazar tashlashi serjabil.

Rim san'atida spiritualizm tug'ilma boshladi, u o'rta asr san'atiga xosdir.



Fayum portreti



Rimliklar san'atida portret rangtasvir keng tarqaladi. Bunga fayum portrettari (I–III asrlar, bizning era) misol bo'ladi. Ular El-Fayum degan joydan topilgani uchun shu nom bilan atalgan. Bu Rimning sharqiy provinsiyasi bo'lган. Portret janri El-Fayumda ellistik-rimlik san'ati ta'sirida rivojlangan. Bu o'ziga xos qadimgi Misr portretizm yo'nalishi traditsiyasi davomidir. Misr portretiga qaraganda Fayum portreti go'zallik san'atida yangi tur edi. Portretlar enkaustika texnikasida bajarilib, tempera bo'yoqlari ishlatalgan. Toza tempera ham ishlatalgan. Portretilarda yoshiga qarab, ravshanlik bilan yuzlari qanday tuzilgan bo'lsa, shunday tasvirlangan. Enkaustika texnikasida bajarilgan «Soqolli oltim tojli odam portreti» (II asr bosh., Moskva) go'zal ishlangan. Bo'yoqlar yaltiroq bo'lib, go'yoki qimmatbahol toshday miltillab turadi. •Rimlik qari odam portreti•da (I asr, bizning era, Moskva) qahramonning ozg'in yuz tuzilishi to'liq ko'rsatilgan. Rassom ranglarning garmoniyasini bera olgan.

II—III asrlar oxiriga kelib, Fayum portretlarida sxematizm elementlari paydo bo'ldi. Shuning bilan binga ularda mahalliy qadimgi Misr traditsiyalarin tasviri kuchayadi. Frontal kompozisiyalar qaytadan tiklanadi. Enkaustika o'miga temper qo'llaniladigan bo'ldi.

Rim san'ati o'zini katta badiiy antik madaniyat davrini tugaiddi. 395 yillarda Rim imperiyasi o'z faoliyatini to'xtatdi. U g'arbiy va sharqiy davlatlarga bo'ysondi. IV—VII asrlarda Rim varvarlar tomonidan vayron va talon-taroj qilinadi.

Tayanch so'zler:

<i>Etruslar</i>	— eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Appenin yarimorolining shimoliy-g'arbida yashagan qadimgi qabiladir.
<i>Arka</i>	— yo'lakni qiyshiq chiziqli yopilishi.
<i>Kompozit orderi</i>	— murakkab order Rim imperiyasida paydo bo'lgan.
<i>Atrium</i>	— qadimgi rim uylaridagi zal markazi o'tasidagi ochiq joy. ustunlar bilan o'ralgan hovli.
<i>Toga</i>	— qadimgi rimliklarning kiyimi.
<i>Arxivolt</i>	— qiyshiq chiziqli tyaga. arkani ustidagi chiziq, yuzini chegaralovchi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Rim respublikasining arxitekturasini qanday rivojlangan?
2. Rimda qanday arxitektura qurilmalari paydo bo'ldi?
3. Rim respublikasida haykaltaroshlik qanday rivojlangan?
4. Imperiya davri arxitekturasini respublikanikidan nimasi bilan farq qiladi?
5. Fayum portretlari to'g'risida nimalarni bilasiz?

O'RTA ASRLAR SAN'ATI

O'na asrlar san'ati feodalizm davrida paydo bo'lib taraqqiy etgan. Feodalizm progressiv formatsiya hisoblangan. Madaniyat qadimiy dunyoga qaraganda keng ommani ichiga chuqur kirib borgan. O'na asrlarda ko'pgina maktablar paydo bo'ladi, ularning tradisiyalari shu kunda ham davom etmoqda! Bu vaqt san'atning davri edi. G'arbiy Yevropada o'rta asrlar san'ati hammaga taalluqli edi. Cherkov ommabop bo'lishga intilgan.

O'rta asrlarda antiqa davrga qaraganda san'aida yangicha qarashlar, tushunchalar paydo bo'ldi.

Rassomlar dindorlar uchun (cherkovlar) asarlar yaratma boshladilar. Xristian dindorlari yerdagi hamma narsa u dunyo hayotiga teng bo'la olmaydi deb hisoblaydilar. O'rta Sharqdagi misulmon dini haykal yoki odam rasmini chizishni ta'qiqladi.

O'na asrlarda Yevropa va Osiyo san'ati (qadimgi Rus, Xitoy, Hindiston) yuqori taraqqiyotga crishdi. Masalan, Xitoyda o'rta asrda haqiqiy gullah davri bo'ldi, rangiasvir janri — natyurmort, hayotiy janr, portret va manzaralar ishlash kuchaydi. Vizantiya chromlari, Yevropaning romantik va gotik arxitekturasi, arablarning maschitlari, Hindiston va Xitoydagagi chromlar o'rta asr san'atining klassik xazinasidir.


Vizantiya san'ati O'rta asrlar san'atining markazlardan biri bu Vizantiyadir. U 395 yilda Rim imperiyasi tarqalib ketgandan so'ng Sharqiy Rim imperiyasining asosida alohida davlat bo'lib qoladi.


U 1453 yilgacha mavjud bo'lgan.

Vizantiya san'ati o'rta asrlar badiiy madaniyatini rivojlanтирishda zarur pog'ona edi. Unda odamni yuqori saviyali

bo'lishga intilishi ko'rsatilgan. Vizantiya madaniyati va san'ati o'ziga xos bo'lib, feodalizm taraqqiyoti xususiyatlarini ko'rsatib bergen. Vizantiya markazlashgan davlat edi. Poytaxti — Konstantinopol bo'lib, uni greklar imperatori Konstantin qurdigan. Vizantiya antik madaniyat namunalarini asragan. Bu davlatga ko'pgina antik haykallar olib keligan. Bu yerda universitet tashkil etilib, unga hamma davlatlardan taniqli ilmiy ishlar kechirilgan. Vizantiya yozmalari dunyo uchun Gomer, Esxil, Sofokl asarlarini asrab qoldi. VIII asrgacha anitik xalq teatri rivojlandi.


Vizantiyalik rassomlar xristian xudosi va avliyolar obrazini tasvirlaganlar. Vizantiya san'atining shakllanishiga ellistikli sharqiy provinsiyalari badiiy traditsiyalari katta ahamiyatga ega bo'ldi, Mesopotamiya, Suriya, Falastina, Misr, Antioxiya san'atlarining ham roli bo'lgan. Vizantiya san'atining eng yaxshi asarları Konstantinopol maktabiniqidir.



Vizantiya (V—VII asrlar)


Vizantiya san'atining birinchi ko'tarilishi VI asrga to'g'ri keladi (527—565 yillarda). Imperator Yustinian I (527—565 yillarda) davrida gullab-yashnab ketdi. Bu davrda Vizantiya davlatchiligiga asos solindi.

Xalq qo'zg'olonlarini bostirish, forslar, vandallar va gotlar bilan olib borilgan g'alabalii unishlardan so'ng Vizantiya dunyodagi qudratini kuchaytirdi va shuning oqibatida uning chegaralari kengayib ketdi.



Arxitektura

Poytaxtg'a olimlar va rassomlar turli yerdan ko'chib kelardi. Boshqa xalqlarning san'at asarlarini olib kelinardi.



Yustinian I davrida Konstantinopolda katta qurilishlar bo'ldi. Vizantiya poytaxtini zamondoshlar «ikkinci Rim» deb atadilar. V asrda shahar keng mudofaa devorlari, minoralar, oltin darvozalar bilan mustahkamlandi. Ibodatxona ansainbillari va chromlar arxitekturada boshchilik qildi. Ular orasida Vizantiya uchun alohida xos bo'lgan bazilikli va markaziy — gumbazli chromlardir.

